e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 11

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/r0e75354

TO‘Y MAROSIMLARIGA TEGISHLI LEKSEMALAR VA ULARNING QO‘LLANILISHI

Xonxo‘jayeva Anzurat Sultonovna
Samarqand davlat pedagogika instituti, dotsent, (PhD).
e-mail: anzuratsultonovna@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0000-0002-0070-3668

Annotatsiya.
Maqolada Samarqand tojiklari lahjasidagi to‘y marosimlariga oid etnografik leksemalar lingvomadaniy va leksik-semantik jihatdan tahlil qilinadi. To‘y marosimlari uch guruhga – to‘ydan oldingi, to‘y jarayonidagi va to‘ydan keyingi urf-odatlarga ajratilib, ularga xos leksik birliklar (to‘y, sur, to‘yona, fotiha, nikoh, yuzko‘rdi, bibiseshanbe va boshqalar) ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ushbu leksemalar Samarqand tojiklarining milliy-madaniy o‘ziga xosligini ifodalovchi muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, Samarqand tojiklari lahjasining tojik tilining shimoliy shevalari tarkibida mustaqil lahja sifatida shakllanishida bilingvizm hodisasi muhim rol o‘ynaganligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: etnografizm, to‘y marosimlari, Samarqand tojiklari, leksik-semantik tahlil, lingvomadaniyat, bilingvizm, urf-odat, dialektal leksika.

ЛЕКСЕМЫ, СВЯЗАННЫЕ СО СВАДЕБНЫМИ ОБРЯДАМИ, И ИХ УПОТРЕБЛЕНИЕ

Хонходжаева Анзурат Султоновна
Самаркандский государственный педагогический институт, доцент, (PhD).

Аннотация.
В статье проводится лингвокультурологический и лексико-семантический анализ этнографических лексем, связанных со свадебными обрядами в говоре самаркандских таджиков. Свадебные обряды подразделяются на три группы: предсвадебные, свадебные и послесвадебные традиции. Рассматриваются характерные для них лексические единицы (to‘y, sur, to‘yona, fotiha, nikoh, yuzko‘rdi, bibiseshanbe и другие). Результаты исследования показывают, что данные лексемы являются важным источником отражения национально-культурной самобытности самаркандских таджиков. Кроме того, обосновывается значительная роль билингвизма в формировании говора самаркандских таджиков как самостоятельного диалекта в составе северных говоров таджикского языка.

Ключевые слова: этнографизм, свадебные обряды, самаркандские таджики, лексико-семантический анализ, лингвокультурология, билингвизм, традиции и обычаи, диалектная лексика.

LEXEMES RELATED TO WEDDING CEREMONIES AND THEIR USAGE

Xonxo‘jayeva Anzurat Sultonovna
Samarkand State Pedagogical Institute, Associate Professor, (PhD).

Abstract.
The article presents a linguocultural and lexical-semantic analysis of ethnographic lexemes associated with wedding ceremonies in the dialect of the Samarkand Tajiks. Wedding ceremonies are classified into three groups: pre-wedding, wedding, and post-wedding customs. The study examines characteristic lexical units such as to‘y, sur, to‘yona, fotiha, nikoh, yuzko‘rdi, bibiseshanbe, and others. The findings indicate that these lexemes serve as an important source reflecting the national and cultural identity of the Samarkand Tajiks. Furthermore, the study substantiates the significant role of bilingualism in the formation of the Samarkand Tajik dialect as a distinct dialect within the northern varieties of the Tajik language.

Keywords: ethnographism, wedding ceremonies, Samarkand Tajiks, lexical-semantic analysis, linguocultural studies, bilingualism, customs and traditions, dialectal vocabulary.

Kirish. Jahon tilshunosligida xalqlarning moddiy va ma’naviy madaniyati, turmush tarzi, milliy urf-odat va qadriyatlari xususida lingvomadaniy axborotni o‘zida jamlovchi etnografik leksikani keng o‘rganish va tillarning noyob xazinasi bo‘lgan etnografizmlarni kelajak avlodlarga yetkazib berish dolzarblik kasb etmoqda. Zero, etnografizmlar umummilliy etnografik leksika bilan tarixiy-genetik jihatdan mushtaraklik kasb etgan holda, o‘zida moddiy va ma’naviy madaniyatni aks ettiruvchi alohida etnomadaniy mazmun tashiydi. Shu nuqtayi nazardan, etnografizmlarning leksik-semantik xususiyatlarini lingvomadaniy aspektda tizimli tarzda o‘rganish soha taraqqiyotini ta’minlaydigan muhim omillardan hisoblanadi.

Dunyo etnolingvistika fanida etnografizmlarni ma’lum bir hududda yashab kelayotgan xalqning qadimiy urf-

odatlari, madaniyati, an'ana va udumlarini o'zida ifodalaydigan milliy va dialektal leksik qatlam sifatida lingvomadaniy va lingvokognitiv jihatdan tekshirish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Dunyo tillaridagi etnografizmlarning tarixiy-ijtimoiy va lingvistik asoslarini tadqiq etish muayyan xalqning fani, milliy tili, tarixi, urf-odatlari, an'analari, madaniy merosi va hayotiy qadriyatlari haqidagi bilimlarni boyitadi. Binobarin, etnografik leksikaning asosiy leksik-semantik belgilarini jahon tilshunosligining so'nggi yutuqlaridan, zamonaviy tilshunoslikning yangi metodlaridan foydalangan holda tadqiq etish hamda bundan dunyo ilmiy jamoatchiligini xabardor etish zarurati yuzaga kelmoqda.

Tilshunoslikda Markaziy Osiyo hududida istiqomat qiluvchi xalqlarning milliy-ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlarini tadqiq etish yo'nalishida bir qancha izlanishlar olib borilgan va ular ayni vaqtda ham izchil tarzda davom etmoqda. Keyingi yillarda tojik va o'zbek tilshunosligida bu hudud aholisining tili va madaniyatini o'rganish bo'yicha qator tadqiqotlar yuzaga keldi [12, 13, 15, 16, 20, 35, 36, 52, 67, 69, 70, 95, 122, 166]. Bu borada ilmiy kuzatishlar olib borish tilshunoslikning etnografiya bilan bog'liq sohasini yangi ma'lumotlar bilan boyitishi shubhasiz.

Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalqlarning urf-odatlari, milliy-ma'naviy qadriyatlaridagi o'zaro o'xshash va farqli jihatlarning xalq og'zaki ijodida namoyon bo'lishi azaldan olim-u fuzalolarni qiziqtirib kelgan. Bu hududda yashovchi xalqlar etnografiyasiga oid dastlabki tadqiqotlar A. Beruniy, M. Koshg'ariy, A. Navoiy, Z. M. Bobur kabi mutafakkirlar, keyinroq V. Radlov, A. Divayev, G. Potanin kabi turkologlar tomonidan amalga oshirilgan [105, 1866–1886; 37, 1895–1902; 104, 45–54].

Tojik xalqining, xususan, Samarqand tojiklarining asrlar davomida shakllangan va odat tusiga kirgan rasm-rusumlari, marosimlari mavjud bo'lib, ular doimo tadqiqotchilarni o'ziga jalb etib kelgan. Tojik tilshunosi G'. Jo'rayev bu borada shakllangan leksemalarning xalqning muqaddas tarixi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi [149, 88]. Adabiyotshunos B. Sarimsoqov marosimlarni mavzuiy-vazifaviy xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'lib ko'rsatadi: "Birinchi guruh – leksemaning magik qudratiga asoslanuvchi marosimlar: kinna, badik (gulafsho), burey-burey, avrash, olqish va qarg'ishlar va boshqalar. Ikkinchi guruh – bolalarning beshikdagi davri marosimi: chilla, uyqu qochirish, beshikka solish. Uchinchi guruh – to'y marosimlari: jar, yor-yor, o'lan, lapar, kelin salom, kuyov salom, to'y olqishlari, oyna ko'rsatar kabilar. To'rtinchi guruh – motam marosimi: yig'i-yo'qlovlar va motam yor-yorlari va boshqalar" [132, 9]. Albatta, keltirilgan tasnif mazkur hududda istiqomat qiluvchi o'zbeklar bilan birga yashovchi tojiklarga ham taalluqlidir.

Muayyan xalqning urf-odatlari bo'yicha kuzatishlar olib borgan N. Mirzayev etnografizmlarning xalq hayoti bilan chambarchas bog'liqligi haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Har bir xalqning turmush sharoitlari, marosim va an'analari shu xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan bo'lib, o'sha xalqqa xos bo'lgan milliy belgi va xususiyatlarning muhim jihatlarini tashkil etadi. Turmush an'analari ijtimoiy, shaxsiy va oilaviy hayotning zaruriy va doimiy tomonlari bo'lgan turar joy, oziq-ovqat, kiyim-bosh, bola tarbiyasi, turmush qurish, o'lim kabi hodisalarni o'z ichiga olgan bo'lib, bu an'analar doimiy takrorlanishi natijasida qat'iy marosimlarga aylanib qoldi" [221, 4]. Darhaqiqat, olim to'g'ri ta'kidlaganidek, "Etnografik leksika ayrim o'xshashliklarni hisobga olmaganda, umumxalq tilida bir xilda qo'llanmaydigan leksemalar bo'lib, ko'p jihatdan mahalliy xususiyat kasb etib turadi. Shuningdek, etnografizmlar ham boshqa til hodisalari kabi xalq tarixi bilan bog'liq bo'lish bilan birga, xususan, mahalliy hudud guruh kishilarining o'ziga xos ijtimoiy faoliyati, mehnat jarayoni, madaniy-maishiy turmushi bilan ham uzviy bog'liqdir" [221, 4]. Ko'rinadiki, xalq og'zaki ijodining shakllanishi va badiiy san'at darajasiga ko'tarilishi bevosita Samarqand tojiklarining turmush tarzi, ma'naviyati va madaniyati, asrlar davomida shakllangan urf-odatlari, kasb-hunarlarining rivojlanganligi hamda marosimlari bilan bog'liqdir. "Shu boisdan dunyoda o'z marosimlariga ega bo'lmagan birorta ham xalq yo'q. Binobarin, u muayyan xalqning boshqa xalqlardan farqlanib turishini ta'minlovchi muhim etnografik belgilardan biri bo'lib xizmat qiladi. Chunki har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum bir tarixiy taraqqiyot bosqichidagi iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida nisbatan to'la mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi. Shuning uchun ham muayyan etnik birlikka xos asosiy xususiyatlarning etnografik mezoni sifatida marosim hamma vaqt tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi" [132, 9].

Hozirga qadar saqlanib kelayotgan urf-odatlar har bir xalqning, xususan, tojik xalqining ham asrlar davomida yuzaga kelgan madaniyati, rasm-rusumlari, urf-odatlari, an'analari, marosimlari va turmushi haqida muhim ma'lumot beruvchi manba hisoblanadi. Shu jihatdan tilshunos R. Qodirov tojik xalqining turli lahjalari o'rtasida to'y marosimlari leksikasida umumiylik mavjudligini ta'kidlaydi [167, 46]. Shuning uchun ularni tadqiq etish o'ziga xos ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ular etnografiya fanining tadqiqot obyekti hisoblanadi. "Ma'lumki, etnografiya fani keng ma'noda xalqni o'rganadi. Chunonchi, muayyan biror xalqning tarixiy tashkil topishini, madaniyatini, rasm-rusumi, urf-odati, an'analari, marosimlari, turmushi va umuman xalqning ishlab chiqarish, yashash usuli va ma'naviy hayoti bilan bog'liq bo'lgan bir qator masalalarni o'rganadi. Shuning uchun ham etnografizm bo'yog'i va tamg'asiga ega bo'lgan leksemalar tilda paydo bo'lishiga ko'ra, shu til egasi bo'lmish xalqning eng qadimgi davrlardan shu bugungi kunigacha bo'lgan ijtimoiy va ma'naviy hayoti bilan ham uzviy bog'langandir. Xalq orasida saqlanib kelinayotgan turli-tuman odat, marosim va e'tiqodlar, g'ayritabiiy kuchlarga ishonch kabi udumlar juda qadimiy bo'lib, afsun, animizm, totemizm, shomoniylik va nihoyat islom dini aqidalari bilan bog'liq holda yuzaga kelganlar. Bundan tashqari, bunday leksemalar xalqning ijtimoiy va ma'naviy hayotining faqat bir jihati bilan bog'langan tor (lokal) sohaning leksemalari bo'lmay, balki ishlab chiqarishning, moddiy va ma'naviy hayotning juda ko'p sohalarini o'zida ma'lum darajada aks ettirib kelgan leksemalardir" [221, 4]. Rasm-odatlarni ifodalovchi birliklarga to'y, boshladi, maslahatoshi, xatim, qalin, yo'qlandi, ta'ziya, motamxona kabi leksemalar kiradi.

To'y-hasham marosimlariga oid leksemalar ham adabiy til leksik tarkibining muhim lug'aviy qatlamlaridan hisoblanib, o'zining qadimiy tarixiga egadir. Samarqand hududida yashovchi tojiklar leksik zaxirasida to'y marosimlariga oid leksemalarning asosiy qismini lug'aviy fond leksemalari tashkil etadi va ularning aksariyati asl tojikcha lug'aviy birliklardan iborat. Tilshunos G'. Jo'rayev "Zaboni mo – jahoni mo" (Dushanbe, 2016) asarida buni quyidagicha izohlaydi:

ISSN 3060-5059 (Online)

"...tilning barcha leksemalari shu til egalarining boshqa milliy qadriyatlari kabi o'tmishi va bugunini o'zida mujassamlashtirgan lug'atlarda saqlanib qolgan va ehtiyoj tug'ilganda ularning biror qismi qaytadan so'zlashuv tiliga o'tadi. Lug'at tarkibidagi har bir leksemaning mazmuni, kelib chiqishi, qo'llanilish holatlariga doir bo'lgan muhim ma'lumotni o'zida saqlaydi. Ayniqsa, leksemalarning kelib chiqish manbai juda muhim va diqqatga sazovor bo'lib, u nafaqat tilshunos olimlar, balki har bir ma'rifatli kishini o'ziga jalb etadi" [149, 88].

To'y leksemasiga "Farhangi tafsirii zaboni tojiki"da shunday izoh berilgan: to'y t. jashn, id; sur: to'yi aro'sӣ, to'yi xatna; to'yona hadyai to'y; to'ygardi to'y ba to'y gashtan; kelinfurori aro'sfurori; to'yxabar on ki ba to'y xabar mekunad; to'yxona xonai to'ydor; to'yxo'r ishtirokdori to'y [229, 234]. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izoh berilgan: "To'y – 1. etn. Uylanish, turmushga chiqish, xatna qilish va boshqa munosabatlar bilan ziyofat berib, bazm-tomoshalar bilan o'tkaziladigan xalq marosimlarining umumiy nomi. Nikoh to'yi. O'g'il (xatna, sunnat) to'yi. Beshik to'yi. To'y qilmoq. Ma'raka – mardniki, to'y – xalqniki. Maqol. Maqtanganning uyiga bor, Kerilganning to'yiga bor. Maqol. Homidvoy bo'lsa, bugun unashsalaring, ertaga to'yni boshlaymiz, deydi. (A. Qodiriy. O'tgan kunlar). Kechagi dam olish kuni Rashidning to'yi bo'ldi. (Shuhrat. Shinelli yillar). 2. etn. Qudalar o'rtasidagi kelishuvga muvofiq, kuyov tomondan qiz tomonga beriladigan pul, sarpo, masalliq va shu kabilar majmui... 3. etn. Shu narsalar yuborilishi munosabati bilan kuyov xonadonida, kelishi munosabati bilan qiz xonadonida o'tkaziladigan marosim" [241, 229–230].

To'y marosimi Markaziy Osiyoda yashovchi xalqlar qatorida Samarqand tojiklarining ham eng qadimiy an'analaridan biri bo'lib, o'z navbatida jashni aro'si (kelin to'yi), to'yi xatna yo xatnasur (sunnat to'yi) singari marosimlarga bo'linadi va bu jarayonda etnografiyaga xos leksemalar keng qo'llaniladi. Samarqand tojiklari so'zlashuv nutqida bu marosimga xos bo'lgan quyidagi etnografik leksemalar ishlatiladi: to'y (bayram, nishonlash); sur (kelinlik to'yi, xatna to'yi); to'yona (to'y sovg'asi); to'ygardi (to'yma-to'y yurish); to'yxabar (to'yga xabar qilish); to'yxona (to'y qilinadigan uy); to'yxo'r (to'yda ishtirok etuvchi); zavchi, gapzani, maslihat/maslahatkuni, xostgori, marhilai fotiha, nonshikanon, marhilai parchaburon, fotiha, andozubardor, xarojoti to'y, maslihatoshi, dugonatalbon, sallabandon, libospo'shon, sambo'saxo'ron, nikoh, xondani qubba (qubbaxoni), ziyofati to'y, ro'ybinon (ro'binon-ro'ykushoi), joyg'undoron (chimiliqkani), domodtalbonu aro'stalbon (kelintalbon), "Bibiseshanbe" (biseshanbe), "bibimush-kulkusho" (bimushkulkusho) va boshqalar. Bu leksemalar Samarqand hududida, xususan, Samarqand shahri, Samarqand, Tayloq va Urgut tumanlarida istiqomat qiluvchi tojiklar lahjasida deyarli bir xil shaklda ishlatiladi. Bu esa hududdagi to'ylarning umumiy jihatdan bir xilligidan dalolat beradi. Biroq ularning ba'zi bir xususiyatlariga diqqat bilan nazar solsak, har birida o'ziga xos farqlar mavjudligini kuzatishimiz mumkin [kengroq ma'lumot olish uchun qarang: 167]. Shu sababli to'yga bog'liq an'analarni o'rganish, ularning faktlarini tahlil qilish orqali bir necha muhim ijtimoiy, tarbiyaviy va axloqiy masalalarni yoritish hamda dunyo musulmonlari madaniyatining mushtarakligini isbotlab berish mumkin.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo hududida yashovchi har bir millatning turmush sharoitlari, marosim va an'analari shu xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan bo'lib, o'sha xalqqa xos bo'lgan milliy belgi va xususiyatlarning muhim jihatlarini tashkil etadi. Shu bois Samarqand tojiklarining ijtimoiy-madaniy hayotida tojik xalqiga xos azaliy an'ana va udumlar, urf-odatlar saqlanib qolgan. Ularning tilida qo'llanuvchi etnografik leksika o'ziga xos bo'lib, uning rang-barangligi, yangi etnografizmlarning paydo bo'lishi bevosita davr ruhi, xalq ijtimoiy hayotida yuz bergan o'zgarishlar bilan bog'liq.

Samarqand tojiklari lahjasining etnografik leksikasida to'y marosimiga oid leksemalar katta bir guruhni tashkil qiladi. Ularni leksik-semantik jihatdan tahlil qilishda uch turga – to'yoldi marosimlariga bog'liq leksika, to'y marosimiga bog'liq leksika va kelin to'yidan keyingi urf-odatlarga oid etnografizmlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

4. Samarqand tojiklari to'ylarini ularning o'tkazilishiga qarab quyidagi uch guruhga bo'lib o'rganish lozim deb topildi:

1. To'ydan oldingi marosimlar: sovchilik, unashtirish, non sindirish, fotiha, oqyirtar, to'y xarajati, maslahat oshi, dugonalar yig'ini, salla o'rash, kiyim kiygizish, somsaxo'rlik va boshqalar.
2. To'y jarayonida amalga oshiriluvchi marosimlar: nikoh, xutba o'qish, to'y ziyofati, kelinni gulxan atrofidan aylantirish, yuzko'rdi (yuzochdi) va boshqalar.
3. To'ydan keyingi urf-odatlar: joy yig'ish, kuyovcharlar, kelincharlar, bibiseshanbe, bibimushkilkusho kabilar.

Samarqand tojiklari lahjasidagi to'y va motam marosimlariga oid leksemalarni tadqiq etish shuni ko'rsatadiki, bu lahja tojik tilining shimoliy shevalariga mansub mustaqil lahjalardan biri hisoblanib, Samarqand shimoliy lahjalarining keng tarqalishida muhim o'rin tutadi va lahjalararo o'zaro ta'sir, muayyan qavmiyatlar lahjalarining bilingvizm hodisasi asosida shakllanib borish jarayonini yaqqol ko'rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzayev N. O'zbek tili etnografizmlarining izohli lug'ati. – Toshkent: Fan, 1991. – B. 4.
2. Радлов В. В. Образцы народной литературы северных тюркских племен. – СПб., 1866–1886. – Т. I–VII.
3. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. – Toshkent: Fan, 1986. – B. 9.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. – IV jild. – Toshkent: O'zME, 2007. – 641 b.
5. Ҷӯраев Ғ. Забони мо – ҷаҳони мо. – Душанбе, 2016. – 178 с.
6. Қодиров Р. Назаре ба фолклори тоҷикони вилояти Қашқадарё. – Душанбе: Эҷод, 2005. – 168 с.
7. Фарҳанги тафсирии забони тоҷикӣ (ФТЗТ): иборат аз ду ҷилд. – Душанбе, 2008. – Ҷ. 1. – 950 с.; Ҷ. 2. – 945 с.